

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
FARMONI**

**MA’MURIY ISLOHOTLAR DOIRASIDA MADANIYAT VA TURIZM SOHASIDA
DAVLAT BOSHQARUVINI SAMARALI TASHKIL QILISH CHORA-TADBIRLARI
TO‘G‘RISIDA**

Respublikada madaniyat va turizm sohasini jadal rivojlantirish bo‘yicha samarali ishlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, mamlakatimizning turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish, ayniqsa, mahalliy va xorijiy turistlar uchun ekohududlar, tog‘ va cho‘l hududlari hamda suv obyektlarining suvni muhofaza qilish zonalarining imkoniyatlaridan yanada kengroq foydalangan holda ekoturizmni rivojlantirish ishlarini amalga oshirish zarur.

Qolaversa, madaniyat sohasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, iste’dodli yosh ijodkorlarni izlab topish va qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, o‘zbek mumtoz va folklor san’atining noyob namunalari va an’alarini yanada rivojlantirishni tizimli yo‘lga qo‘yish uchun barcha sharoitlarni yaratish lozim.

Mazkur vazifalarni tezkor hamda yangi yondashuv asosida sifatli tashkil etish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-14-son [Farmoni](#) ijrosini ta’minlash maqsadida:

1. Quyidagilar:

a) Madaniyat va turizm vazirligi negizida:

Madaniyat vazirligi;

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzurida Turizm qo‘mitasi;

b) Madaniyat va turizm vazirligining hududiy bo‘linmalari negizida:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Madaniyat vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar madaniyat boshqarmalari, tuman (shahar) madaniyat bo‘limlari;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar turizm boshqarmalari tashkil qilinsin.

2. Belgilansinki, Madaniyat vazirligi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Madaniyat vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar madaniyat boshqarmalari, tuman (shahar) madaniyat bo‘limlari hamda Turizm qo‘mitasi va uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari shtat birliklari Madaniyat va turizm vazirligining mavjud shtat birliklari hisobidan shakllantiriladi.

3. Quyidagilar:

Madaniyat vazirligi faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari [1-ilovaga](#) muvofiq;

Madaniyat vazirligi tizimidagi muassasalarni qayta tashkil qilish va qayta nomlash dasturi [2-ilovaga](#) muvofiq;

Madaniyat vazirligi tizimida yangi tashkil qilinayotgan muassasalar ro‘yxati [3-ilovaga](#) muvofiq;

Madaniyat vazirligining tashkiliy tuzilmasi [4-ilovaga](#) muvofiq;

Kinematografiya agentligining tashkiliy tuzilmasi [5-ilovaga](#) muvofiq;

Madaniyat va san’at sohasida islohotlarni chuqurlashtirish va tizim faoliyatini transformatsiya qilish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” [6-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

4. Madaniyat va san’at sohasida ta’limni tizimli isloh qilish, milliy musiqa va teatr san’ati, ilmiy-tadqiqot ishlari va ijrochilik mahoratining yangi tizimini joriy qilish maqsadida quyidagi chora-tadbirlar belgilansin:

a) milliy musiqa san’ati klasteri yaratilib, sohada yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ularni ish bilan ta’minlash hamda malakasini oshirish tizimli yo‘lga qo‘yiladi. Bunda:

milliy musiqa san'ati yo'nalishida ta'lim va ilmiy-tadqiqot ishlari takomillashtirilib, ijrochilik mahorati maktablarining yaxlit tizimi joriy etiladi;

bastakorlar, hofiz va sozandalar, baxshichilik san'ati vakillarining noyob asarlari notalashtiriladi;

ta'lim jarayonining uzluksizligi va uzviyligi ta'minlanib, nazariy va amaliy bilimlarni integratsiya qilish orqali maqom, baxshi va doston ijrochiligi yo'nalishlarida iste'dodli yoshlar seleksiyasi amalga oshiriladi;

b) davlat musiqali, drama hamda qo'g'irchoq teatrlarida yagona repertuar strategiyasi asosida g'oyaviy, ma'naviy va badiiy jihatdan puxta yaratilgan sahna asarlarini namoyish etish, teatr va sirk san'ati ustalari tomonidan "ustoz-shogird" an'analari va mahorat maktablari asosida ta'lim berish tizimi yo'lga qo'yiladi;

v) nomoddiy madaniy merosni har tomonlama muhofaza qilish, keng jamoatchilikni jalb etgan holda uning namunalarini aniqlash, nomoddiy madaniy meros bo'yicha xalqaro ro'yxatlar va reyestrlarga kiritish, raqamlashtirish, targ'ib qilish va saqlash bo'yicha yangi tashabbuslar va loyihalar amalga oshiriladi hamda mazkur faoliyat bilan shug'ullanuvchi davlat tashkilotlari faoliyati qo'llab-quvvatlanadi.

5. Belgilansinki:

a) 2023-yil 1-sentabrdan boshlab, aholining madaniy hayotini yanada mazmunli tashkil etish, ayniqsa, yoshlarni madaniyat va san'atga keng jalb qilish uchun madaniyat markazlarida:

bosqichma-bosqich zamonaviy jihozlangan kutubxonalar va kinoteatrlar tashkil etiladi;

musiqa cholg'uchiligi va ashula ijrochiligi bo'yicha pullik maxsus kurslarda o'qitish tizimi joriy etiladi;

b) 2024 — 2026-yillarda xalqaro festivallar, forumlar va respublika darajasidagi madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish ishlari bosqichma-bosqich xususiy sektorga o'tkaziladi.

6. Madaniyat va san'at sohasida axborot texnologiyalarini rivojlantirish va boshqaruvni raqamlashtirish orqali xizmat ko'rsatish jarayonlarini soddalashtirishga qaratilgan quyidagilarni nazarda tutuvchi "ERP madaniyat" yagona boshqaruv tizimi joriy qilinsin:

madaniyat markazlari, bolalar musiqa va san'at maktablari, ixtisoslashtirilgan madaniyat va san'at maktablari hamda maktab-internatlar, texnikumlar faoliyatida boshqaruv va tashkiliy jarayonlarni raqamlashtirish bo'yicha axborot tizimlari ishlab chiqiladi, ariza topshirish hamda bitirganlik to'g'risidagi guvohnomalarni olish bo'yicha davlat xizmatlari Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali va davlat xizmatlari markazlari axborot tizimlari bilan integratsiya qilinadi;

madaniyat markazlari va ko'zi ojizlar uchun adabiyotlarni buyurtma asosida yetkazishga mo'ljallangan axborot tizimlari, aholiga audiovizual asarlarni taqdim qilishga mo'ljallangan maxsus video platforma hamda yoshlarga milliy musiqa cholg'ulari to'g'risida dastlabki ta'limni berishga mo'ljallangan "Cholg'u.uz" mobil ilovasi ishlab chiqiladi;

Madaniyat vazirligi tizimidagi tashkilotlarda tushumlarni onlayn monitoring qilishga mo'ljallangan axborot tizimi ishlab chiqiladi hamda "UzASBO" avtomatlashtirilgan dasturiy majmuasi bilan integratsiya qilinadi.

7. "O'zbekteatr" hamda "Madaniyat ta'limi markazi" davlat muassasalari tashkil etilsin. Bunda, "O'zbekteatr" va "Madaniyat ta'limi markazi" davlat muassasalarining shtat birliklari 7 va 8-[ilovalarda](#) keltirilgan tashkilotlarning umumiy shtat birliklarini maqbullashtirish hisobiga shakllantiriladi hamda ularni saqlash bilan bog'liq xarajatlar Davlat budjetidan Madaniyat vazirligiga ajratilgan mablag'lar doirasida moliyalashtiriladi.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga 9-[ilovaga](#) muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

9. Madaniyat vazirligi hamda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda uch oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilsin.

10. Mazkur Farmonning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib madaniyat vaziri hamda ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri belgilansin.

Farmon ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas'ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2023-yil 27-iyul,
PF-114-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi PF-114-son Farmoniga
1-ILOVA

Madaniyat vazirligi faoliyatining ustuvor yo'nalishlari

Quyidagilar Madaniyat vazirligi faoliyatining ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi:

a) madaniyat va san'at sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, unda ishtirok etuvchi davlat organlarining ushbu yo'nalishdagi faoliyatini muvofiqlashtirish hamda mazkur sohalarida qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

b) sohaga oid kompleks dasturlarni ishlab chiqish, madaniyat sohasida faoliyat yuritadigan nodavlat notijorat tashkilotlar hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash;

v) madaniyat va san'at, shu jumladan, teatr, kino, musiqa, xoreografiya, estrada, sirk va xalq amaliy san'atini yanada rivojlantirish;

g) xalqimizning ma'naviy-axloqiy va madaniy darajasini yanada yuksaltirish, Yangi O'zbekistonda do'stlik va ko'p millatli yagona oila tuyg'usi muhitini mustahkamlash;

d) madaniyat va san'at hamda kino san'atidan unumli foydalangan holda ijodiy raqobatni rivojlantirish;

e) nomoddiy madaniy merosni o'rganish, asrab-avaylash va targ'ib qilish, san'at va badiiy ijodni har tomonlama qo'llab-quvvatlash orqali rivojlantirish;

j) madaniyat sohasi infratuzilmasini modernizatsiya qilish, bosqichma-bosqich raqamlashtirish, xalqaro reytinglarda mamlakatimiz mavqeyini oshirish;

z) madaniyat va san'at sohalaridagi xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish va mustahkamlash, xalqaro shartnomalar tayyorlash, tuzish va bajarish haqida takliflar ishlab chiqish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi PF-114-son Farmoniga
2-ILOVA

Madaniyat vazirligi tizimidagi muassasalarni qayta tashkil qilish va qayta nomlash

DASTURI

T/r	Tashkilotning amaldagi to'liq (rasmiy) nomi	Tashkilotning taklif qilinayotgan to'liq (rasmiy) nomi	Qayta tashkil qilinayotgan va qayta nomlanayotgan tashkilotning faoliyatiga oid qoidalar va izohlar
1.	“O'zbek davlat sirki” davlat muassasasi	“O'zbeksirk” davlat muassasasi	O'zbekiston sirk san'ati sohasida faoliyat yuritadigan tashkilotlar, jamoalar, yakka ijrochilarni birlashtirish , xalqimizning boy madaniy merosini tiklash va har tomonlama rivojlantirish, o'zbek sirki san'ati sohasida xizmat ko'rsatish madaniyatini oshirish “O'zbeksirk”

			davlat muassasasining asosiy vazifalari etib belgilanadi.
2.	“Yosh ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash va axborot multimedia markazi” davlat muassasasi	“Iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash markazi” davlat muassasasi	Chekka hududlardagi iqtidorli yoshlarning noyob iste’dodini ro‘yobga chiqarish va ular faoliyatini tizimli targ‘ib etish, madaniyat va san‘at borasida yoshlarning intilishlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida konsert va madaniy shou-tomosha tadbirlarini o‘tkazish, milliy musiqa va qo‘shiqchilik san’atining noyob namunalarini yoshlar orasida keng targ‘ib qilish , yoshlar uchun tajriba almashish seminarlari, ilmiy-ijodiy simpoziumlar, konferensiyalar, mahorat darslarini tashkil etish markazning asosiy vazifalari etib belgilanadi.
3.	Madaniyat vazirligi tizimidagi “Binolardan foydalanish va ularni ekspluatatsiya qilish direksiyasi” davlat unitar korxonasi	Madaniyat vazirligi tizimidagi “Binolardan foydalanish va ularni ekspluatatsiya qilish direksiyasi” davlat muassasasi	Madaniyat vazirligi tizimidagi binolardan foydalanish va ularni ekspluatatsiya qilish mazkur davlat muassasasining asosiy vazifalari etib belgilanadi. “Binolardan foydalanish va ularni ekspluatatsiya qilish direksiyasi” davlat muassasasida aholiga, shu jumladan tadbirkorlik subyektlariga va mamlakatimizga tashrif buyurayotgan turistlarga xizmat ko‘rsatish va mehnatga haq to‘lash shartlari, moliyalashtirish manbalari hamda shtat birliklari saqlab qolinadi.
4.	Madaniyat vazirligi tizimidagi Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti	Madaniyat vazirligi tizimidagi Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbekiston milliy musiqa san’ati akademiyasi	Milliy musiqa san’ati klasteri yaratish, sohada yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ularni ish bilan ta‘minlash hamda malakasini oshirish Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbekiston milliy musiqa san’ati akademiyasining asosiy vazifalari hisoblanadi. Akademiya tizimiga O‘zbek milliy maqom san’ati markazi, Baxshichilik san’atiga ixtisoslashtirilgan respublika maktab-internati, Buxoro, Farg‘ona va Urganch maqom san’atiga ixtisoslashtirilgan maktab-internatlari o‘tkaziladi.
5.	Madaniyat vazirligi huzuridagi Respublika madaniyat muassasalari faoliyatini tashkil etish ilmiy-metodik markazi	Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti	Nomoddiy madaniy merosni har tomonlama muhofaza qilish, keng jamoatchilikni jalb etgan holda uning namunalarini aniqlash, nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to‘g‘risidagi xalqaro ro‘yxatlar va reyestrlarga kiritish, raqamlashtirish,

		targ'ib qilish va saqlash bo'yicha yangi tashabbuslar va loyihalarni amalga oshirish Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot institutining asosiy vazifalari hisoblanadi.
--	--	---

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi PF-114-son Farmoniga
3-ILOVA

Madaniyat vazirligi tizimida yangi tashkil qilinayotgan muassasalar

RO'YXATI


T/r	Yangi tashkil qilinayotgan muassasaning to'liq (rasmiy) nomi	Yangi tashkil qilinayotgan muassasaning faoliyatiga oid qoidalar va izohlar
1.	“O‘zbekteatr” davlat muassasasi	Farmonga 7-ildavda keltirilgan ro'yxatga muvofiq davlat teatrlari va teatr studiyalarining umumiy shtat birliklarini maqbullashtirish hisobiga tashkil etilib, respublikadagi davlat teatrlari va teatr studiyalari faoliyatini muvofiqlashtiradi hamda ularga uslubiy yordam ko'rsatadi.
2.	“Madaniyat ta’limi markazi” davlat muassasasi	Farmonga 8-ildavda keltirilgan ro'yxatga muvofiq ta'lim tashkilotlarining umumiy shtat birliklarini maqbullashtirish hisobiga tashkil etilib, ta'lim tashkilotlari samarali faoliyat yuritishini ta'minlaydi, ularga ilmiy-uslubiy yordam ko'rsatadi hamda faoliyatini muvofiqlashtiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi PF-114-son Farmoniga
4-ILOVA

Madaniyat vazirligining


TASHKILIY TUZILMASI





O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi PF-114-son **Farmoniga**
5-ILOVA

Kinematografiya agentligining
TASHKILIY TUZILMASI



“O‘zbekiston milliy kinofondi” davlat muassasasi	“Qoraqalpoqfilm” davlat unitar korxonasi	“Do‘rmon kinoijodkorlar uyi” davlat unitar korxonasi
“O‘zbekiston kino san’ati muzeyi” davlat muassasasi	“Yoshlik” kinostudiyasi” davlat unitar korxonasi	Milliy kinematografiyani rivojlantirish markazi
“S.A. Gerasimov nomidagi Butunrossiya davlat kinematografiya instituti” federal davlat budjeti oliy ta’lim muassasasi filiali	“Hujjatli va xronikal filmlar kinostudiyasi” davlat unitar korxonasi	

* Izoh. Kinematografiya agentligining viloyatlar va Toshkent shahar hududiy bo‘limlari tugatilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-14-son Farmoniga 1-ilovaning 16.2-pozitsiyasidagi boshqaruv shtat birliklari Kinematografiya agentligining markaziy apparatida to‘liq saqlab qolinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi PF-114-son Farmoniga
6-ILOVA

Madaniyat va san’at sohasida islohotlarni chuqurlashtirish va tizim faoliyatini transformatsiya qilish bo‘yicha

“YO‘L XARITASI”

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish muddati	Mas’ul bo‘lgan rahbar o‘rinbosari	Bajarilgan ishlarning pirovard natijasi
I. Vazirlik va tizim tashkilotlarining aniq asosiy faoliyat yo‘nalishlarini belgilash, qabul qilingan rivojlantirish dasturlari, strategiyalar va konsepsiyalarni amalga oshirish				
1.	Madaniyat vazirligining (keyingi o‘rinlarda — vazirlik) madaniyat, san’at va kinematografiya sohalaridagi faoliyat yo‘nalishlari, vazifalari, funksiyalari hamda huquq va majburiyatlarini belgilash. Bunda: vazirlik zimmasiga yuklatilgan tegishli sohalaridagi asosiy vazifalarni (8 dan ortiq); vazirlikka yuklatilgan asosiy vazifalardan kelib chiqib, markaziy apparat, tarkibiy tuzilmalar, hududiy bo‘linmalar va tizim tashkilotlarining funksiyalarini (200 dan ortiq); vazirlik hamda uning hududiy bo‘linmalari va tizim tashkilotlarining huquq va majburiyatlarini belgilash.	2023-yil IV chorak	M. Madjidov, B. Axmedov	Vazirlik hamda uning hududiy bo‘linma va tizim tashkilotlarining birlashtirilishi va qayta tashkil etilishi munosabati bilan ularning vazifalari, funksiyalari, huquqlari va majburiyatlarini aniq belgilanadi. Ortiqcha, ishlaymaydigan, takroriy, bugungi kunda amalda bo‘lgan, biroq o‘z ahamiyatini yo‘qotgan 10 dan ortiq funksiyalar chiqarib tashlanadi. Madaniyat va san’at sohalarida vakolatli organ va uning tarkibiy bo‘linmalari faoliyati to‘g‘ri va tizimli yo‘lga qo‘yiladi.

	Mazkur normalarni o'zida aks ettirgan normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqib, Vazirlar Mahkamasiga kiritish.			
2.	Madaniyat sohalarini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan konsepsiya, strategiya va "yo'l xaritalari"ni qayta ko'rib chiqib, ularni Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlariga muvofiqlashtirish bo'yicha takliflar, jumladan: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining"Teatr va sirk san'atini yanada rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori loyihasi; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat markazlari faoliyatini zamon talablari asosida tubdan takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori loyihasini tayyorlash.	2024-yil III chorak	M. Madjidov, B. Axmedov	Madaniyat sohalarini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan konsepsiya, strategiya va "yo'l xaritalari" takomillashtiriladi. Teatr va sirk muassasalari, madaniyat markazlari faoliyati yanada rivojlantiriladi, ularning jamiyat hayotidagi o'rni oshiriladi. Shuningdek, ta'mirtalab holatga kelib qolgan 20 tadavlat teatri, "O'zbekisirk" davlat muassasasi binosi hamda 450tadan ortiq madaniyat markazlarida qurilish, ta'mirlash va jihozlash ishlari amalga oshiriladi. Natijada aholiga sifatli madaniy xizmat ko'rsatishga erishiladi.
3.	Qabul qilingan rivojlantirish dasturlari, strategiyalar va konsepsiyalarni amalga oshirish: Madaniyat yo'nalishi bo'yicha: O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini izchil davom ettirish va hayotga tatbiq etilishini ta'minlash; madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlarini belgilash; opera va balet san'atini yanada rivojlantirish	2023 — 2026-yillar davomida	M. Madjidov, B. Axmedov	Madaniy va ijtimoiy sohani takomillashtirish orqali barkamol shaxsni shakllantirish va milliy madaniyatni yanada rivojlantirishga erishiladi. Vatandoshlar bilan tizimli hamkorlikning samarali mexanizmlarini shakllantirish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarda faol ishtirok etishi uchun vatandoshlarning intellektual, kasbiy va resurs salohiyatini jalb qilish hamda xalqaro maydonda O'zbekistonning nufuzini yanada mustahkamlash va milliy manfaatlarini ilgari surish, xorijiy mamlakatlar bilan o'zaro manfaatli va do'stona munosabatlarni yo'lga qo'yish imkoni yaratiladi.

dasturining amalga oshirilishini ta'minlash. Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari bo'yicha: xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan hamkorlik sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish; millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasi ijrosini ta'minlash. Kinematografiya bo'yicha: Milliy kinematografiyani yanada rivojlantirish chora-tadbirlari ijrosini ta'minlash; Kinematografiya sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish hamda soha vakillarining ijodiy faoliyati uchun munosib sharoit yaratishni ta'minlash.			M. Madjidov, B. Axmedov M. Madjidov, B. Axmedov	Kinematografiya sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirishga, kinofilmlarni moliyalashtirish tizimini yaxshilashga va sohani malakali kadrlar bilan ta'minlashga erishiladi.
II. Sohalarda hal qilinishi lozim bo'lgan masalalarga yechim topishga yo'naltirilgan tashkiliy-huquqiy va moliyaviy chora-tadbirlar ko'rish, aholi uchun qulay sharoitlar yaratish, fuqarolarning tizimli muammolarini hal etish				
4.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-noyabrdagi "Korporativ munosabatlarning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-415-son qaroriga muvofiq vazirlik tizimidagi, shu jumladan Kinematografiya agentligi tizimidagi unitar korxona va davlat unitar korxonalarining tashkiliy-huquqiy shakllarini bosqichma-bosqich yuridik shaxsning boshqa tashkiliy-huquqiy shakllariga o'zgartirish choralari ko'rish.	2024-yil IV chorak	M. Madjidov, B. Axmedov	Vazirlik tizimidagi yuridik shaxslar tashkiliy-huquqiy shakllarining o'z ahamiyatini yo'qotgan ayrim turlari tugatilib, zamonaviy korporativ boshqaruv usullari joriy etilishi ta'minlanadi.

5.	Quyidagilarni amalga oshirish: soha mutaxassislari mehnatiga haq to‘lash tartibini qayta ko‘rib chiqish; aholiga madaniy xizmat ko‘rsatishni sifatli tashkil etish maqsadida marketing tizimini yanada rivojlantirish; mamlakatimizning milliy madaniyati, san’ati va kino salohiyatini xorijiy mamlakatlarda targ‘ib qilish bo‘yicha yangi tartibni joriy etish.	2023-yil davomida	M. Madjidov, B. Axmedov	Madaniyat va san’at sohasiga yetuk mutaxassislarni jalb qilish, kadrlar qo‘nimsizligini bartaraf etish, tizimning jahon miqyosidagi raqobatbardoshligini yanada oshirish va shu orqali aholiga madaniy xizmat ko‘rsatish ko‘lami hamda sifatini yuksaltirishga erishiladi. Mamlakatimizning milliy madaniyati, san’ati va kino salohiyatini yagona tartib asosida targ‘ib qilish tizimi joriy etiladi.
6.	Vazirlik tizimidagi ko‘zi ojizlar kutubxonasini mavjud shtat birliklari hamda barcha mol-mulki, shu jumladan moddiy-texnika vositalari bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tizimiga o‘tkazish bo‘yicha asoslantirilgan takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2023-yil IV chorak	M. Madjidov, B. Axmedov	Ko‘zi ojizlar kutubxonasining maqsadi va faoliyat yo‘nalishiga ko‘ra mavjud shtat birliklari hamda barcha mol-mulki, shu jumladan moddiy-texnika vositalari bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tizimiga o‘tkazilishi ta’minlanadi.
7.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining kinematografiya sohasida ijodiy jarayonlarni yanada rivojlantirishga oid qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish. Bunda: “O‘zbekfilm” kinostudiyasida yetakchi ijodkorlar, mutaxassislarni va ijodiy jamoalarni jalb qilgan holda davlat buyurtmasi asosida filmlar ishlab chiqarishning markazlashgan tizimini tashkil qilish; “Hujjatli va xronikal filmlar kinostudiyasi” davlat unitar korxonasi faoliyatini tubdan isloh qilish, moddiy-texnika bazasini takomillashtirish va 2024 — 2030-yillarda O‘zbekistonning uch ming yillik davlatchilik tarixiga bag‘ishlangan 100 seriyali	2024-yil I chorak	B. Axmedov, F. Abduxalikov	“O‘zbekfilm” kinostudiyasida kino sohasida faoliyat yuritayotgan ijodkor va mutaxassislarni, ishlab chiqarish quvvatlari jamlanadi hamda davlat buyurtmasi asosida filmlar ishlab chiqarish bo‘yicha yagona tizim yo‘lga qo‘yiladi. “Hujjatli va xronikal filmlar kinostudiyasi” davlat unitar korxonasi O‘zbekistonning uch ming yillik davlatchilik tarixi, yurtimizda ilm-fan, madaniyat va san’at, hunarmandchilik sohalarining rivojlanishiga bag‘ishlangan yuqori sifatli audiovizual mahsulotlar yaratiladi. Kino san’ati sohasida yosh ijodkorlarni kashf qilish va tarbiyalash hamda bolalar va o‘smirlarga bag‘ishlangan yuqori sifatli filmlar yaratish bo‘yicha samarali tizim yaratiladi.

	hujjatli serial ishlab chiqarish; “Yoshlik” kinostudiyasida iqtidorli yosh ijodkorlar ishtirokida bolalar va o’smirlar auditoriyasiga mo’ljallangan filmlar, kinojurnallar, kinosolnomalar ishlab chiqarish.			
III. Energiyani tejash, uning samaradorligini oshirish va sohaga qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng jalb qilish				
8.	Madaniyat, san’at, kinematografiya sohalaridagi obyektlarni xatlovdan o’tkazish. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari bilan birgalikda vazirlik tarkibiga kiruvchi obyektlarga qayta tiklanuvchi energiya manbalari uskunalari o’rnatishning 2023 — 2025-yillarga mo’ljallangan manzilli ro’yxatini ishlab chiqish va tasdiqlash. Bunda: madaniyat va san’at obyektlarini barpo etishda obyektlar bo’yicha texnik topshiriqlar va loyiha hujjatlarini ishlab chiqishda energiya tejovchi vositalar bilan jihozlashni; madaniyat va san’at obyektlarini barpo etish bo’yicha tasdiqlangan normativ-huquqiy hujjatlar asosida tegishli talabnomalarga o’zgartirishlar kiritishni nazarda tutish.	2023-yil dekabr 2024-yil I chorak	M. Madjidov, B. Axmedov	Vazirlik tizimidagi bino va inshootlarda energiya sarfini har yili kamida 30 foizgacha qisqartirishga erishiladi. Uch yil mobaynida vazirlik tarkibiga kiruvchi tashkilot va muassasa binolarini qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari bilan ta’minlash darajasi 100 foizga yetkaziladi.
IV. Madaniyat va san’at sohalarida davlat-xususiy sheriklik va autsorsing mexanizmlarini keng joriy qilish, 2023-yil davomida vazirlik hamda uning tizim tashkilotlarining ayrim funksiyalarini bosqichma-bosqich xususiy sektorga o’tkazish				
9.	Sohadagi tashkilot va muassasalarni davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etish va autsorsing mexanizmlarini keng joriy qilish bo’yicha	2023 — 2025-yillar davomida	M. Madjidov, B. Axmedov	Davlat-xususiy sheriklik asosida rekonstruksiya qilish, ta’mirlash, madaniyat muassasalari tarmog‘ini yanada kengaytirish, ularning moddiy-

quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish: sohaga oid tadbirkorlik subyektlari tomonidan berilgan tashabbuslarni qayta ko‘rib chiqish; sohada tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, xizmatlar sifatini yanada oshirishga qaratilgan ishlarni moliyalashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish bo‘yicha Hukumatga takliflar kiritish; sohada davlat-xususiy sheriklikni yanada rivojlantirish maqsadida kamida 2 ta xorijiy davlat tajribasini o‘rganish va eng ilg‘or tajribalarni O‘zbekistonda joriy etish choralarini ko‘rish; 15 ta madaniyat va san‘at muassasalarini davlat-xususiy sheriklik asosida tadbirkorlik subyektlariga berish; davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish orqali “O‘zbeksirk” davlat muassasasi faoliyatiga investorlarni jalb qilish choralari ni ko‘rish; kinematografiya bo‘yicha tizimdagi 8 ta yopiq va yozgi kinoteatrlarni davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida xususiy sektorga berish hamda ushbu yo‘nalishda xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish.		texnika bazasini mustahkamlash uchun xususiy sheriklik (tadbirkorlik subyektlari) hisobidan 29,5 mlrd so‘m investitsiya mablag‘lari jalb qilinib, jami 250 nafardan ziyod yangi ish o‘rinlari yaratiladi. Davlat budjeti mablag‘lari tejalib, aholiga sifatli xizmat ko‘rsatadigan zamonaviy madaniyat markazlari tashkil etiladi. “O‘zbeksirk” davlat muassasasiga xususiy sheriklik hisobidan 55 mlrd so‘m investitsiya mablag‘lari jalb qilinib, yangi ish o‘rinlari yaratiladi.
V. Litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillaridagi byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar tayyorlash. Litsenziya va ruxsat berish xususiyatiga ega hujjat talab etiladigan faoliyat turi, ularni berish uchun talab etiladigan hujjatlar soni, xizmat ko‘rsatish vaqti hamda ularni berish uchun to‘lovlar (yig‘imlar) miqdorini kamaytirish		

10.	Filmni ommaviy namoyish etish uchun bir martalik ruxsatnoma berish tizimini soddalashtirish hamda xizmat ko'rsatish bo'yicha to'lovlarni kamaytirish yuzasidan taklif ishlab chiqish.	2023-2024-yillar davomida	M. Madjidov, B. Axmedov	Filmlar ommaviy namoyishini amalga oshiruvchi tadbirkorlarga qulayliklar yaratiladi.
VI. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish (ularga xizmat ko'rsatish, davlat tomonidan subsidiya taqdim etish, imtiyoz berish va boshqacha tartibda qo'llab-quvvatlash) hamda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish				
11.	“Inson qadri uchun” ezgu g'oyasi asosida quyidagi davlat buyurtmalarini berish: madaniyat sohasi bo'yicha: 40ta yangi spektakl sahnalashtirishga; kompozitorlar va bastakorlarga 40 ta yangi musiqa asarlari, shu jumladan, opera, simfoniya, oratoriya kabi mumtoz va zamonaviy janrlar, xususan, estrada bo'yicha asarlar yaratishga; kamida 100 ta yuksak badiiy saviyadagi internet va ijtimoiy tarmoqlar uchun mo'ljallangan audiovizual asarlar yaratishga; kamida 150 taeng yaxshi milliy qo'shiqlarni karaoke yordamida ijro qilish uchun qayta ishlashga; milliy kuylardan iborat musiqiy albomlarni tayyorlash va ommalashtirish ishlariga; kinematografiya sohasi bo'yicha: 30 ta to'liq metrajli badiiy filmlarga; 13 ta qisqa metrajli filmlarga;	2023-2024-yillar davomida	B. Axmedov	O'zbek xalqining asrlar davomida avloddan-avlodga noyob meros sifatida o'tib kelayotgan milliy mumtoz va zamonaviy musiqa, teatr va tomosha san'ati an'alarini boyitish, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod ongida milliy madaniyatimiz va qadriyatlarimizga nisbatan ehtirom hislarini oshirishga erishiladi. Mazmun va shakl jihatidan rang-barang kino asarlari yaratilishiga, milliy kino mahsulotlarini yaratish yillik ishlab chiqarish hajmlarining oshishiga hamda aholini milliy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga erishiladi.

	30 ta hujjatli, ilmiy-ommabop, o'quv-uslubiy filmlar, ijtimoiy roliklar, kinosolnomalarga; 50 ta multiplikatsion filmlarga.			
VII. Vazirlik tizimidagi tashkilotlar faoliyatini qayta ko'rib chiqish hamda ularni va ulardagi davlat ulushini xususiylashtirish bo'yicha taklif tayyorlash				
12.	Vazirlik tizimidagi davlat unitar korxonalari va muassasalari faoliyatini qayta ko'rib chiqib, ular faoliyatini takomillashtirish, maqbullashtirish va xususiylashtirish bo'yicha taklif ishlab chiqish.	2023-yil dekabr	M. Madjidov, B. Axmedov	Iqtisodiyotda xususiy sektor ulushining oshishiga erishiladi.
VIII. Vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlar tomonidan aholiga davlat xizmatlari ko'rsatishning modelini takomillashtirish				
13.	Madaniyat sohasi bo'yicha bolalar musiqa va san'at maktablariga o'quvchilarni qabul qilish uchun aholi tomonidan ariza berish amaliyotini Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali onlayn amalga oshirishni joriy etish.	2024/2025 o'quv yilidan boshlab	M. Madjidov, B. Axmedov	Sun'iy byurokratik to'siqlar bartaraf etilib, ota-onalar farzandlarini musiqa va san'at maktablariga o'qishga qabul qilish bo'yicha elektron ariza berish imkoni paydo bo'ladi.
IX. Vazirlik va uning tarkibiga kiradigan tashkilotlar kesimida korrupsiya avj olgan sohalarida uning rivojlanish sabablari va shartlarini o'rganish asosida ushbu sohalarining har biriga "tashxis qo'yish" hamda korrupsiya omillarini bartaraf etish				
14.	Sohada korrupsion omillar yuqori bo'lgan vazifa va funksiyalar qayta xatlovdan o'tkazgan holda, mazkur yo'nalishlarni tegishli xususiy sektorlarga o'tkazish yoki ushbu funktsiya va vazifalarni raqamlashtirish orqali inson omilini kamaytirish choralarini ko'rish. Bunda, birinchi navbatda vazirlik va uning tizimiga kiruvchi tashkilotlarning davlat fuqarolik xizmatiga tegishli vakant lavozimlariga fuqarolarni "Davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimlarining yagona ochiq	2023-yil davomida	M. Madjidov, B. Axmedov	Ta'lim muassasalarida o'tkazilgan kirish imtihonlari va yakuniy nazorat ishlarini ijtimoiy tarmoq hamda elektron platformalar orqali to'g'ridan-to'g'ri keng yoritish natijasida shaffoflik ta'minlanadi. Tanlov jarayonlarini ochiqlik va shaffoflik asosida jamoatchilik nazoratida tashkil etish mexanizmi yaratiladi. Sohaning xizmat ko'rsatish ko'lami va sifati oshadi, budjet mablag'larini tejash, korrupsiya va suiiste'molchilikholatlarinioldini olishga erishiladi.

	portali” orqali ishga qabul qilishni nazarda tutish. Shuningdek, qo‘shimcha ravishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish: tizimdagi oliy ta’lim muassasalariga kasbiy (ijodiy) kirish imtihonlari hamda talabalarning yakuniy nazorat ishlarini topshirish jarayonlarini onlayn kuzatib borish mexanizmini joriy etish; vazirlik tomonidan tashkil etilayotgan 3bosqichli (tuman (shahar), viloyat, respublika) tanlovlarni 1 bosqichli (respublika) kasting asosida tashkil etishni joriy etish.			
X. Sohaga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, shu jumladan vazirlik va tizim tashkilotlarining ish jarayonini raqamlashtirish				
15.	Madaniyat va san’at sohasida axborot texnologiyalarini rivojlantirish va boshqaruvni raqamlashtirish orqali xizmat ko‘rsatish jarayonlarini soddalashtirish, sohadagi korrupsion omillarni bartaraf etish va shaffoflikni ta’minlash, o‘zbek milliy kontentini yanada boyitish, aholini sifatli va o‘zbek mentalitetiga mos bo‘lgan audiovizual asarlar bilan ta’minlashni nazarda tutuvchi “ERP madaniyat” yagona boshqaruv tizimini joriy qilish bo‘yicha 2023 — 2027-yillarga mo‘ljallangan harakatlar dasturini ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish. Bunda: madaniyat markazlari, bolalar musiqa va san’at maktablari, ixtisoslashtirilgan madaniyat va san’at maktablari va maktab-internatlar, kollej,	2024-yil I chorak	M. Madjidov, B. Axmedov	Respublikadagi davlat mukofotlari bilan taqdirlangan madaniyat va san’at sohasi vakillari to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasi shakllantiriladi. Tanlovlarni tashkil etishdagi 2 ta bosqich (tuman, viloyat) tugatilib, inson omili kamayadi. Sohaga raqamli axborot texnologiyalari joriy etiladi, ortiqcha qog‘oz va hujjatlar yuritishdan voz kechiladi, ortiqcha ovoragarchiliklarga barham beriladi, shaffof va ixcham tizim yaratiladi hamda ushbu hujjatlarning yuritilishini raqamlashtirish orqali ta’lim sifatini doimiy monitoring qilish imkoni yaratiladi.

texnikumlar faoliyatida boshqaruv va tashkiliy jarayonlarni raqamlashtirish bo'yicha axborot tizimlarini ishlab chiqish va ariza topshirish hamda bitirganlik to'g'risidagi guvohnomalarni olish davlat xizmatini **Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali** va davlat xizmatlari markazlari axborot tizimlari bilan integratsiya qilish;

madaniyat markazlari va ko'zi ojizlar uchun adabiyotlarni buyurtma asosida yetkazishga mo'ljallangan axborot tizimlari, aholiga audiovizual asarlarni taqdim qilishga mo'ljallangan maxsus video platforma hamda yoshlarga milliy musiqa cholg'ulari to'g'risida dastlabki ta'limni berishga mo'ljallangan **"Cholgu.uz" mobil ilovasini** ishlab chiqish hamda Milliy tanlovlar platformasi (**milliytanlov.uz**)ni takomillashtirish;

ommaviy madaniy tadbirlar, konsert-tomosha dasturlari uchun sotiladigan chipta narxlarining sun'iy oshirilishini oldini olish hamda korrupsion omillarni qisqartirish maqsadida elektron chipta sotish tizimini tartibga solish;

o'zbek milliy kontentini yanada rivojlantirish, boshqarish va qayta ishlash hamda tashqi Internet trafigi uchun sarflanayotgan mablag'larni iqtisod qilish maqsadida **"Media ma'lumotlar markazi"**ni tashkil etish;

tizimdagi tashkilot va muassasalarda tushumlarni onlayn monitoring qilishga

